



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темура кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Иқтисодий тафаккур – иқтисодий тараққиётнинг муҳим омили	5
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Klaster doirasida xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasini tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari va shakllari	16
Barchinoy Shonazar qizi Mavlanova Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari	21
Бахтияржон Бултурбаевич Муллабаев Худудлар ривожланишидаги номуносибликни камайтиришда хорижий тажрибалардан фойдаланиш	24
Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ўрозов Марказий Осиёда иккинчи ренессансга асос солишда Амир Темур ва теурийларнинг хизматлари	31
Nodir Djumanazarovich Khusanov O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda strategiya va mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirish yo‘llari	35
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev, Lola Nazarovna Khalikova The role of human capital in forming the digital economy	40
Mavluda Azamatovna Shodmonova Raqamlashtirishning logistika samaradorligiga ta’siri	42
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Ruziboy Normaxmatov, Jasur Kaharov, Akram G‘afurov Olma mevasi – biologik faol moddalarning muhim manbaidir.	45
Отабек Джурабаевич Джурабаев Определение направлений оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	48
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Присбек Иватов Аҳолига хизмат кўрсатишда деҳқон бозори фаолиятини ривожлантириш ва тартиблаштириш	56
Фарход Анварович Сафаров Мослашувчан бошқарув тамойиллари асосида хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини таъминлаш	60
Baxtiyor Nusratovich Nosirov Mintaqaning uy-joy kommunal xizmatlar sohasida aloqa va axborotlashtirishni rivojlantirishni modellashtirish	64
Акмал Анвар ўғли Рахматов Мижозларга савдо хизматлари кўрсатишни такомиллаштиришнинг замонавий йўналишлари	70
Umid Xolboyevich Xolboyev Xizmatlar sohasi raqobatbardoshligini oshirishning nazariy masalalari	75
To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev Qurilish xizmatlarini iqtisodiy tahlil obyekti sifatida xalqaro standartlar asosida tasniflash	77

<p>Ф.Сафаров</p> <p>Обеспечение конкурентоспособности предприятий сферы услуг на основе принципов гибкого управления</p> <p>Аннотация: в статье освещены вопросы учета влияния факторов внешней среды и адаптации к ним в целях обеспечения конкурентоспособности предприятий сферы услуг и повышения их эффективности. Рассмотрены перспективы модернизации предприятий сферы услуг с использованием принципов гибкого управления.</p> <p>Ключевые слова: сервис, конкурентоспособность, эффективность, гибкое управление, модернизация, стратегия, мобилизация.</p>	<p>F.Safarov</p> <p>Ensuring the competitiveness of service sector enterprises based on the principles of flexible management</p> <p>Abstract: the article highlights the issues of taking into account the influence of environmental factors and adapting to them in order to ensure the competitiveness of service sector enterprises and increase their efficiency. The prospects for modernizing service sector enterprises using the principles of flexible management are considered.</p> <p>Keywords: service, competitiveness, efficiency, flexible management, modernization, strategy, mobilization.</p>
---	---

Baxtiyor Nusratovich Nosirov – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali “Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minoti” kafedrasida katta o’qituvchisi.

MINTAQANING UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLAR SOHASIDA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNI MODELLASHTIRISH

<p>Annotasiya: Ushbu maqolada mintaqaning uy-joy kommunal xizmatlari sohasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini raqamli texnologiyalardan foydalanib rivojlantirish mexanizmlarini nazariy asoslari takomillashtirilganligi hamda aholiga xizmat ko’rsatishni o’rta muddatli ko’p variantli ssenariylari ishlab chiqilganligi haqida fikr – mulohazalar keltirilgan.</p> <p>Kalit so’zlar: uy-joy kommunal, aloqa va axborotlashtirish, raqamli texnologiya, empirik model, ekonometrik model, prognoz natijalari, axborot tizimi, endogen o’zgaruvchilar, ekzogen o’zgaruvchilar, ko’p variantli, ssenariylar.</p>

Kirish. Mintaqa aholisining hayotini sifatli kommunal xizmatlar bilan ta’minlash jarayonida, kommunal xizmatlarni modernizatsiya qilish, kommunal xizmatlarning yangi yondashuvi, ularni yangi texnik talablar, aqlli shaharlar kabi aqlli mahallalar yaratish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib raqamlashtirish hamda me’yorlar va sifat standartlariga muvofiqlashtirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kundagi eng muhim yo’nalishlaridan biri uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish darajasini axborot tizimlari va texnologiyalaridan samarali foydalanib oshirishni tatbiq qilinmoqda. Uy-joy kommunal xizmatlar aholi yashash sharoitini yanada yaxshilash, uy-joylarning qulayligi va obodonligi, aholini suv, gaz, elektr energiyasidan tejamli foydalanishni tartibga solish, aholining turmush farovonligini oshirish yuzasidan muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning xizmat ko’rsatish sohasini yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foizni tashkil etib, kommunal xizmatlar sohasida esa 42 foizni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining xizmat ko’rsatish sohasida bandlik Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida 75 foiz, AQSHda esa 80 foiz, Yaponiyada 82 foizdan ortadi. Dunyo miqyosida xizmatlar sohasini rivojlantirishda uning hajmi va sifatini oshirishda AKTdan samarali foydalanish muhim rol o’ynaydi.

Yangi O’zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub o’zgarishlar borasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga, mintaqalarda aholiga kommunal xizmat ko’rsatishni sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizning 2035-yilgacha bo’lgan uzoq muddatga mo’ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy o’sish davlat dasturida belgilangan strategik maqsadlardan biri bozor munosabatlari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qat’iyligini shakllantirish uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt tizimlar va aqlli texnologiyalarga bosqichma-bosqich o’tish jarayoni bo’lgan iqtisodiy boshqaruvni

raqamlashtirishning yangi bosqichi, bu nafaqat ishlab chiqarish yoki boshqarish muammolarini bartaraf qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga, balki uning yordamida vaziyatga aniqlik kiritish, kommunal operatsiyalar va xarajatlarni yaxshilash maqsadida katta hajmli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elektron to'lov tizimining nazorat mexanizmini ishlab chiqishda xorijlik olimlarning tadqiqotlariga nazar soladigan bo'lsak, to'lov tizimlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan moliya bozori faoliyatining institutsional jihatlari rus olimi E.G.Xomenko tadqiqotida ko'rib chiqilgan. U kommunal to'lov tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligi va to'lov operatsiyalari tezligi, kommunal to'lov hisob-kitoblarning uzluksizligi har qanday to'lov tizimining muhim xususiyatlaridan biridir, deb ta'kidlaydi [3].

Amerikalik mashhur olim M.Drabenstott [4] dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri AQSHda qishloqlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan beshta muammoni aniqladi, ammo ular boshqa ko'plab holatlarga ham taalluqlidir:

1. Raqamli texnologiyalarga o'tish.
2. Tadbirkorlarni rag'batlantirish.
3. Yangi agrosanoat majmuidan foydalanish.
4. Inson kapitalini yaxshilash.
5. Qishloq muhitini qo'llab-quvvatlash.

Y.Benklerning “Raqamli iqtisodiyot”, D.Tapscott tomonidan kiritilgan “raqamli iqtisodiyot”[5] deb nomlangan ilmiy ishlarida keltirilgan konsepsiyalarida ilgari surilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Masalan, xorijlik iqtisodchi-olim N.P.Grozdanovichning tadqiqotlarida “Aqlli qishloq”larning barqaror rivojlanish xususiyatlari yerdan unumli foydalanish, uy-joylardan maqsadli foydalanish, yurish va velosipedda harakatlanish joylarini yaratish, rekreatsiya maydonlarini saqlash va rivojlantirish, transport muhandisligi, boshqaruvning fuqarolarga qulay va iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish uchun aqlli yechimlarning qo'llanilishi va boshqa yo'nalishlar tavsiflangan [6].

“Texnologiya” yondashuvi transmilliy “Cisco” kompaniyasining globallashuv bo'yicha bosh mutaxassisi Anil Menon tomonidan “qishloq joylarida vertikal ravishda bog'langan tarmoqlarning muammolarini hal qilish uchun aqlli tarmoqlarga ulangan raqamli texnologiyalar yoki AKT dan foydalanadigan qishloq”qa aqlli qishloq degan ta'rifni beradi [16]. Ushbu muammolar mashinalar, ko'cha harakati, transport, tashqi yoritkichlari, suv ta'minoti va uni boshqarish, xavfsizlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatishga ta'sir qilishi mumkin. “Aqlli qishloq” ushbu jarayonlarni qishloq xizmatlarini yanada yaxshiroq qo'llab-quvvatlash va optimallashtirish, resurslar iste'molini kamaytirish va narxlarni ushlab turish, shuningdek, qishloq aholisi, qishloq mehmonlari va o'z mintaqasida biznes bilan faol va samarali muloqot qilish uchun mablag' va imkoniyatlarni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradigan texnologik yechimlarga tayanadi [7].

A.V.Keshelava o'z maqolalarida aholiga kommunal xizmat ko'rsatish soha tizimlarining murakkabligi (axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan tizimlar) raqamli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Murakkab obyektlar holatining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash uchun javobgardir va boshqaruv qarorlarining tanlanishini ta'minlaydi deb e'tirof etadi [8].

E.Brinolfsson va L.Xitshlar Amerikaning yirik 527 ta firmasi faoliyatini o'rganish natijasida, mualliflarning ta'kidlashicha, ko'shimcha aktivlar (axborot texnologiyalari ta'siri ostida o'zgaradigan aktivlar, xodimlarning tajribasi va malakasi, aloqa vositalari va texnologiyalari, qarorlarni qabul qilish sifati, biznes jarayonlaridagi o'zgarishlar va boshqalar) muhim rol o'ynaydi va vaqt o'tishi bilan raqamli texnologiyalarni joriy etish natijalari asta-sekin rivojlanish bosqichida namoyon bo'ladi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarga keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy va klaster


tahlil, statistik guruhlash, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mintaqalarda kommunal xizmatlar sohasining rivojlanishi AKT rivoji bilan munosabatda bo‘lib, o‘z o‘rnida barcha iqtisodiy tizimlarning raqamlashuviga va uning yangi turi bo‘lmish elektron (raqamli) to‘lov tizimining shakllanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi, yurtimiz “Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8-pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak bu ham haqiqat...”[1], deb ta’kidladilar. Shu sababli yuksak rivojlanishga erishish uchun axborot tizimlari va texnologiyalarini puxta o‘rganishimiz muhim. Bu esa biz uchun taraqqiy etishning qisqa vaqtda qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi. Zero, hozirgi vaqtda butun yer yuzida ko‘plab sohalarda raqamli texnologiyalar jadal kirib bormoqda.


Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni istiqbolda takomillashtirish maqsadida hukumatimiz tomonidan “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Dasturda raqamli iqtisodiyotni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari, tartibi, tarmoq va mintaqalarning darajalari, funksiyalari belgilangan [2].

Mintaqalarda kommunal xizmatlarni raqamlashtirishda AKTdan foydalanib tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlarini istiqbolli uslubiy vositalarini izlashni takozo etadi. Fikrimizcha, keltirilgan yetakchi kommunal xizmatlari sifatidagi elektr energiya, gaz, suv va issiqlik ta’minoti, chiqindini boshqarish xizmatlarni raqamlashtirilsa, aholi ehtiyoji va talabiga javob bera olish imkoniga ega bo‘lamiz. (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyotning raqamlashtirishga tayyorgarligini ifodalovchi dunyo reytinglari va indeklari.


“Kommunal xizmatlar” tushunchasining ta’rifida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, “kommunal xizmatlar - bu ichimlik suv ta’minoti, issiq suv ta’minoti, kanalizatsiya, elektr energiyasi, gaz ta’minoti va issiqlik ta’minoti bo‘yicha fuqarolarning yashash joylarida turmush sharoitlarini yaxshilash xizmatidir”, deb ta’rif beriladi [10]. **Raqamli kommunal xizmatlar** - raqamli platformadan foydalanish samaradorligini baholash modelini ishlab chiqish asosida makro darajada zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha uslubiy xizmat ko‘rsatish apparatlari kengaytirilgan kommunal xizmatlardir [11]. Raqamli kommunal xizmatlar o‘ziga xoc ichki tuzilishdan iborat (2-rasm).



2-rasm. Raqamli kommunal xizmatlar.

Kommunal xizmat ko'rsatishni boshqaruvining raqamli platformaga o'tkazilishi– bu kommunal xizmat ko'rsatishning biznes modeli bo'lib, aniq muvofiqlashtirilgan kommunal xizmatlarini taqdim etadi. Platforma iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchilarga ishonch reytingini tuzish, kontragentlarni topish, bitimlar tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirishda o'zaro aloqalarni tezlashtirishga imkon beradi [12].

Shu boisdan kommunal muammolarni tubdan hal qilish uchun, ayniqsa qishloq joylarda kommunal xizmat ko'rsatishni raqamli boshqaruvini joriy etish zaruriyati tug'iladi.



3-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni raqamli boshqaruvining axborot ta'minoti.


3-rasmdan ko'rib turganimizdek, mintaqalarda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni raqamli boshqaruv tizimini tashkil etishda ma'lumotlarga ishlov berish, ma'lumotlarni uzatish,

elektron hujjat almashinuvini tashkil etish, interaktiv xizmatlar joriy etish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’minotidan foydalaniladi [13].

Har bir sohada ma’lumotlar bilan ishlashda tezkorlik, aniqlik, ma’lumotlarning xavfsizligi kabilar talab etiladi. Shu o’rinda, uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish sohasida ham aholi uchun keng imkoniyatlarni yaratib berishda ma’lumotlar bazasi o’z o’rnida ortiqcha qog’ozlarning isrof bo’lishini, ko’p vaqt sarflanishini, soatlab kutish, sarsongarchiliklarni, sarf-xarajatlarning kamayishiga erishiladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish boshqaruvini raqamlashtirishda “Digital Communal” mobil ilovasini joriy etilishi aholi uchun ko’pgina qulayliklarni yaratib beradi. Mobil ilovaning funksional imkoniyatlari haqida fikr yuritadigan bo’lsak, dastlab mobil ilovadan foydalanishda o’zbek, rus va ingliz tillarini tanlash uchun maxsus funksional tugmalar joylashgan bo’lib, foydalanuvchilar o’zlariga kerakli tilni tanlaydi.

Shu o’rinda Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish boshqaruvini raqamlashtirishning imitatsion modellashtirishning blok sxemasi kommunal xizmat ko’rsatish sohalari boshqaruvini raqamlashtirish hamda aholi bilan integratsiyasi beshta blokka bo’linib ishlab chiqildi 4-rasm [14].



4-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish boshqaruvini raqamlashtirishning imitatsion modellashtirishning blok sxemasi.

Birinchi blok–raqamli platforma (1.1), aholi (1.2), dasturchi (1.3) hamda kommunal xizmatlarni boshqarish (1.4) bo’yicha o’zaro integratsiyasi yo’lga qo’yilgan. Ikkinchi blok–“O’zsvuvtaminot” AJ (2.1), aholi (2.2), dasturchi (2.3) hamda suv ta’minotini boshqarish (2.4) bo’yicha o’zaro integratsiyasi yo’lga qo’yilgan. Uchinchi blok–“Mintaqaviy elektr tarmoqlari” AJ (3.1), aholi (3.2), dasturchi (3.3) hamda elektr energiyani boshqarish (3.4) bo’yicha o’zaro integratsiyasi yo’lga qo’yilgan. To’rtinchi blok–“Mintaqagazta’minot” AJ (4.1), aholi (4.2), dasturchi (4.3) hamda gaz ta’minotini boshqarish (4.4) bo’yicha o’zaro integratsiyasi yo’lga qo’yilgan. Beshinchi blok–“Maxsustrans” DUK (5.1), aholi (5.2), dasturchi (5.3) hamda chiqindilarni boshqarish (5.4) bo’yicha o’zaro integratsiyasi yo’lga qo’yilgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari sifatida mintaqalarda kommunal xizmat ko'rsatish faoliyatini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib samaradorligini oshirishda integratsion turdagi “Kommunal axborot–aloqa” platformasini boshqarish modeli ishlab chiqildi [15].

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda raqamli platformalar raqamli transformatsiya uchun eng istiqbolli vosita hisoblanadi. Barcha darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, amalga oshiruvchi tarmoq boshqaruviga asoslangan biznes modellarida inqilobiy o'zgarish mavjud. Radikal o'sishga olib keladigan raqamli platformalardan foydalanish, bozor hajmlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan uy-joy kommunal xizmatlarni raqamli boshqaruvini “Digital Communal” platformasi ishlab chiqildi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilgan elektron xizmat ko'rsatish platformalaridan mintaqamiz aholisi keng miqyosda foydalanishlarini, respublikamiz tadqiqotchilari esa iqtisodiyot tarmoqlaridagi aholiga xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha raqamli platformalar yaratishlarini tavsiya va taklif etib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqi.
2. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
3. Е.Г.Хоменко Электронные платежные системы в России и в зарубежных странах //DOI: 10.17803/1994-1471.2019.105.8.159-164.
4. Drabenstott M., 2001. New policies for a new rural America. International Regional Science Review24, 3–15
5. Tapscott D. The digital economy: promise and peril in the age of networked intelligence. New York; Montreal: McGraw-Hill, 1996, 342 p.
6. Nataša Petković-Grozdanović, Branislava Stoilković and Mikhail Shubenkov 2016 Location Criteria Relevant for Sustainability of Social Housing Model MATEC Web Conf. 73 06001. DOI:
7. Teena Maddox. The world's smartest cities: What IoT and smart governments will mean for you. Magazine TechRepublic, November 2015g.
8. Кешелова А.В. Введение в «цифровую» экономику/подобщ. ред. М.: ВНИИ Геосистем, 2017.28с.
9. Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.
10. On the procedure for providing public services to citizens: Resolution No. 307 of the Government of the Russian Federation dated May 23, 2006 // "Garant" SPS.
11. Mukhitdinov K.S., Rakhimov A.N. The forecast for the development of the public services sector. Scopus //Solid State Technology. - 2020. - T. 63. - no. 6. - S. 12.
12. Mukhitdinov K.S., Normahmatov K.M. Providing health care services to the population of the region. Accepted in the journal The American Journal of Management and Economics Innovations (ISSN-2693-0811) for Volume 03 Issue 02 February 2021.
13. Mukhitdinov K.S., Ibragimov N. Providing household goods and computer repair services to the population of the region. South Asian Journal of Marketing & Management Research 11.2 (2021): 22-32.
14. Abdiraimov S.D., Mukhitdinov K.S. Providing Education Services to the Population of the Region. ISSN: 2350-0328 International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. 16115 -16122
15. Mukhitdinov K.S., Nosirov B.N. Communication and information services to the population of the region. Jan.-March. 21 Vol. 11 No.01 SJIF 7.201 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics page 71-82
16. <https://www.ciscolive.com/2021.html?cid=2021cdnav-hp&dtid=odicdc000509&ccid=cc002287>

<p>Б.Носиров</p> <p>Моделирование развития связи и информатизации в сфере жилищно-коммунального хозяйства региона</p> <p>Аннотация: в данной статье высказывается мнение о совершенствовании теоретических основ механизмов развития услуг связи и информатизации в сфере жилищно-коммунальных услуг региона с использованием цифровых технологий, а также о разработке среднесрочных многовариантных сценариев оказания услуг населению.</p> <p>Ключевые слова: жилищно-коммунальное хозяйство, связь и информатизация, цифровые технологии, эмпирическая модель, эконометрическая модель, результаты прогнозирования, информационная система, эндогенные переменные, экзогенные переменные, многомерность, сценарии.</p>	<p>B.Nosirov</p> <p>Modeling the development of communications and informatization in the field of housing and communal services in the region</p> <p>Abstract: this article expresses an opinion on improving the theoretical foundations of the mechanisms for the development of communication and information services in the field of housing and communal services in the region using digital technologies, as well as on the development of medium-term multi-variant scenarios for the provision of services to the population.</p> <p>Keywords: housing and communal services, communication and informatization, digital technology, empirical model, econometric model, forecast results, information system, endogenous variables, exogenous variables, multivariate, scenarios.</p>
--	---

Акмал Анвар ўгли Рахматов – СамИСИ, мустақил изланувчи

МИЖОЗЛАРГА САВДО ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

<p>Аннотация: мақолада чакана савдо корхоналари томонидан харидорларга қўшимча савдо хизматларини таклиф этиш орқали кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш ва такрорий харидини рақобатлантириш, чакана савдо корхонаси рақобатбардошлигини ошириш масалалари ёритилган. Савдо хизматларининг таснифи ҳамда қўшимча савдо хизматлари кўрсатишни ташкил этиш асосида савдо корхонаси рақобатбардошлигини баҳолаш услубияти таклиф қилинган.</p> <p>Калит сўзлар: мерчендайзинг, қўшимча савдо хизмати, бетакрор сервис, рақобатбардошлик, истеъмол қиймати, мижозларга йўналтирилганлик.</p>
--

Кириш. Мамлакатимизда чакана савдонинг ривожланиши билан бир қаторда истеъмолчи хулқ-атворининг ўзгариши, харидорлар томонидан товарларнинг сифати ва ассортиментига ҳамда кўрсатилаётган савдо хизматларига бўлган талабининг тобора ортиб бориш тенденцияси кузатилмоқда. Бундай шароитда харидорларга қўшимча савдо хизматларини таклиф этиш орқали кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш ва такрорий харидини рақобатлантириш чакана савдо рақобатбардошлигини оширишнинг замонавий йўналишларидан бири сифатида намоён бўлади.

Илғор мамлакатлар ва савдо корхоналари амалиётида қўшимча хизматлар кўрсатишни йўлга қўйиш асосида чакана савдо рақобатбардошлигини таъминлаш тобора оммалашиб бормоқда. Айниқса, товарларни онлайн харид қилиш имкониятини ошириш, интерактив витрина ва савдо заллари, инновацион мерчендайзинг бугунги кун талабига айланган. Шу билан бирга мамлакатимизда, жумладан Бухоро вилоятида ҳам чакана савдода маркетинг амалиётининг заифлиги, истеъмолчилар харид хулқ-атворининг етарлича тадқиқ этилмаётганлиги, замонавий савдо хизмати турларини кенгайтириш асосида рақобатбардошликни таъминлашга етарлича эътибор қаратилмасдан келинмоқда. Юқоридагиларга асосланган ҳолда таъкидлаш жоизки, чакана савдони замонавий даражада ташкил қилиш ва харидорларга қўшимча хизмат турларини таклиф этиш орқали савдо корхонасининг рақобатбардошлигини ошириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Савдо соҳасини ривожлантириш муаммолари ва савдо хизматлари сифатини ошириш масалалари хорижлик олимлардан Ху Хианханг, М.Аршадларнинг илмий изланишларида савдо соҳаси ривожланишининг саноатлашув ва

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.